ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR ( RESEARCH BIB ) – 9.145, SJIF – 5,431

UO‘K: 821.512.133.09:316.356.2

**Urunov Shoxijahon Jamshidovich**

Buxoro davlat universiteti tarix mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

urunovshoxijahon@gmail.com

https://orcid.org/0009-0001-6801-7496

# ABDURAUF FITRATNING “OILA” ASARIDAGI MA’NAVIY-AXLOQIY QARASHLARI VA BUGUNGI YOSHLAR TARBIYASIDAGI ROLI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XX asr boshidagi jadid mutafakkiri Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asaridagi ma’naviy-axloqiy qarashlari tahlil qilinadi. Muallif oilani jamiyatning asosiy hujayrasi sifatida ko‘rib chiqib, farzand tarbiyasida jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya uyg‘unligini ta’kidlagan. Asardagi oilaviy munosabatlar, ota-onaning huquq va burchlari, yosh avlodni axloqiy immunitet ruhida tarbiyalash masalalari bugungi globallashuv va virtual muhit sharoitida yoshlar ijtimoiylashuvini sog‘lomlashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslanadi. Fitrat merosini zamonaviy sotsiologik monitoring va innovatsion yondashuvlar bilan boyitish zarurligi ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** Abdurauf Fitrat, ma’naviy-axloqiy tarbiya, oila tarbiyasi, farzand tarbiyasi, axloqiy immunitet, jadidchilik, yoshlar ijtimoiylashuvi.

**Annotation:** This article analyzes the moral-ethical views of the Jadid thinker Abdurauf Fitrat in his work “Family or Rules of Family Management”. The author examines the family as the basic unit of society, emphasizing the harmony of physical, intellectual, and moral education in child-rearing. Issues of family relations, parental rights and duties, and raising the younger generation with moral immunity are shown to be highly relevant today in the context of globalization and virtual environments for healthy youth socialization. The necessity of enriching Fitrat’s heritage with modern sociological monitoring and innovative approaches is substantiated.

**Keywords:** Abdurauf Fitrat, moral-ethical education, family upbringing, child education, moral immunity, Jadidism, youth socialization.

**Аннотация:** В статье анализируются нравственно-этические взгляды джадидского мыслителя Абдурауфа Фитрата в его произведении “Семья или правила управления семьей”. Автор рассматривает семью как основную ячейку общества, подчеркивая гармонию физического, интеллектуального и нравственного воспитания в воспитании детей. Вопросы семейных отношений, прав и обязанностей родителей, воспитания молодого поколения в духе нравственного иммунитета показаны как актуальные в современных условиях глобализации и виртуальной среды для здоровой социализации молодежи. Обоснована необходимость обогащения наследия Фитрата современным социологическим мониторингом и инновационными подходами.

**Ключевые слова:** Абдурауф Фитрат, нравственно-этическое воспитание, семейное воспитание, воспитание детей, нравственный иммунитет, джадидизм, социализация молодежи.

**Kirish.** Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivoji sharoitida yosh avlod tarbiyasi millat kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib qoldi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir”.[1] Darhaqiqat, ma’naviyat jamiyatning barcha bo‘g‘inlarini birlashtiruvchi kuch bo‘lib, oila esa uning asosiy poydevoridir. XX asr boshidagi Turkiston jadidchilik harakatining yorqin namoyandasi Abdurauf Fitrat aynan shu masalaga chuqur e’tibor qaratgan. Uning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asari oilani jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy hujayrasi sifatida ko‘rib chiqib, unda tarbiyaning tizimli yondashuvini taklif etadi.

Fitrat oilani faqat iqtisodiy yoki huquqiy birlik emas, balki axloqiy va ma’naviy tarbiya maskani deb hisoblagan. U farzand tarbiyasida jismoniy (badan), aqliy va axloqiy tarbiya uyg‘unligini ta’kidlab, bu uch turdagi tarbiyaning bir butun tizim ekanligini ko‘rsatgan. Bugungi kunda yoshlarning virtual muhitda ko‘proq vaqt o‘tkazishi, ijtimoiy tarmoqlar orqali keladigan destruktiv ta’sirlar va “medalavirus” kabi illatlar sharoitida Fitratning bu g‘oyalari yanada dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada Fitratning “Oila” asaridagi ma’naviy-axloqiy qarashlari tahlil qilinib, ularning zamonaviy yoshlar tarbiyasidagi roli ochib beriladi.

Abdurauf Fitrat asarida oilani “Bani Odam madaniyatining asosi” deb ataydi. U oilaning shakllanishini tabiat qonuni bilan bog‘lab, insonning ijtimoiy mavjudligini ta’minlovchi asosiy institut sifatida ko‘radi. Fitratning fikricha, har bir milatning saodati va izzati uning ichki intizomi va totuvligiga, bu esa oilalarning intizomiga tayanishi kerak. “Qayerdagi oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi”, — deb yozadi u.[2]

Fitrat oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni qonun va tartib asosida tartibga solish zarurligini ta’kidlaydi. U oilani “manzil tadbiri” (ro‘zg‘or tebratish tadbiri) deb atab, unda har bir a’zoning huquq va burchlarini aniq belgilashni taklif etadi. Bu yondashuv bugungi kunda ham oilaviy munosabatlardagi tartibsizlik va axloqiy bo‘shliqni bartaraf etishda muhimdir.

Fitrat tarbiyani uch qismga ajratadi: jismoniy (badan) tarbiyasi**,** aqliy tarbiya va axloq tarbiyasi**.** U bolaning ruhiyatini tarbiyalashni asosiy vazifa deb biladi. Fitratning “Odamning fe’l va harakatini bir yaxshi shakl va mazmunga keltirish uchun ruhini tarbiyalash lozim” degan fikri bu g‘oyaning yaqqol ifodasidir.

Axloq tarbiyasida Fitrat otalarning farzandlarga mehnatsevarlik, bilim olish va yaxshi xulqni singdirishini talab qiladi. U “bolalarni o‘ziga ishongan, kuchli, topqir, chaqqon va aqliy qilib tarbiyalash” zarurligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, otalar farzandlarga baxtning zahmat natijasida kelishini tushuntirishlari lozimligini aytadi.

Fitrat axloqiy immunitetni oila ichida shakllantirishni muhim deb hisoblaydi. U oilaviy munosabatlardagi adolat, mehribonlik va hurmatni asos qilib, bu xislatlar jamiyatdagi ma’naviy barqarorlikka asos bo‘lishini ko‘rsatadi. Bugungi yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi “ommaviy madaniyat” ta’sirida axloqiy bo‘shliqqa tushib qolish muammosiga qarshi Fitratning bu g‘oyalari kuchli qalqon bo‘la oladi.

Fitrat farzand tarbiyasini millat kelajagining poydevori deb biladi. U “farzandlarning kelajakda qanday shaxs bo‘lib voyaga yetishlari ularning onalari nimani berganligiga bog‘liq” deb yozadi. Bolalarni erta yoshdan tarbiyalash, ularning ruhiyatini hisobga olish va ijobiy his-tuyg‘ularni qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidlaydi. Zamonaviy sharoitda yoshlarning virtual hayotga berilib ketishi real hayotdagi oilaviy tarbiya o‘rnini bosmoqda. Fitratning “oila –

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi nutqi, 2021-yil 19-yanvar.

[2] Fitrat, A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – 2-nashr. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – B. 4.

jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy bo'g'ini" degan fikri bugungi Yoshlar ittifoqi faoliyati va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda tadbiq etilishi lozim.

Fitratning "Oila" asari bugungi kunda quyidagi yo'nalishlarda qo'llanilishi mumkin:

1. Oilaviy tarbiya dasturlarini ishlab chiqishda (jismoniy, aqliy, axloqiy uyg'unlik).
2. Yoshlar o'rtasida axloqiy immunitetni shakllantirishda.
3. Virtual muhit ta'siriga qarshi real oilaviy tarbiyani kuchaytirishda.
4. Kadrlar tayyorlash va ma'naviyat targ'ibotchilarining etika normalarini belgilashda.

Prezidentimizning ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirish bo'yicha ko'rsatmalarini Fitratning tizimli yondashuvi bilan boyitish milliy tarbiya tizimini yanada takomillashtiradi.

**Xulosa**

Abdurauf Fitratning "Oila" asaridagi ma'naviy-axloqiy qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. U oilani jamiyatning ma'naviy poydevori deb bilib, farzand tarbiyasida tizimli va axloqiy yondashuvni taklif etgan. Globallashuv va raqamli muhit sharoitida yoshlar ijtimoiylashuvini sog'lomlashtirish uchun Fitrat merosini innovatsion sotsiologik tahlil va monitoring tizimlari bilan uyg'unlashtirish zarur. "Teatr– ibratxonadir" degan Behbudiy fikri kabi, oila ham yosh avlod uchun haqiqiy "ibratxona" bo'lishi kerak. Har bir oila, har bir ziyoli va davlat tuzilmalari bu merosni chuqur o'rganib, amaliyotga tatbiq etsa, milliy ma'naviy immunitet mustahkam bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev, Sh. M. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirish bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutq (19.01.2021). – Elektron resurs. – URL: https://pm.gov.uz/oz/lists/view/1053 (murojaat sanasi: 25.04.2026).

2. Fitrat, A. *Oila yoki oila boshqarish tartiblari*. – 2-nashr. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 112 b.

3. Behbudiy, M. Teatr bu – ibratxonadir // Jadid dramaturgiyasi materiallari.